

Rasuljon Atamuratov

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD)
ORCID: 0000-0003-4959-1000
rasul_atamuratov@mail.ru

Sevara Shakirova

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti
sevara.inboxx@gmail.com

UO'K: 37.017

BO'LAJAK O'ZBEK TILI O'QITUVCHILARINING RAQAMLI SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

***Annotatsiya.** Maqolada ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish har qachongidan ham jadallashib borayotganligi hamda zamonaviy ta'lim kontekstida bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining raqamli savodxonligi XXI asrdagi zaruriy ko'nikmalardan biri ekanligi xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat mavjud, balki, kelajak texnologiyalariga va ulardan samarali hamda kreativlik bilan kasbiy faoliyatida foydalanishlari, ta'lim jarayonida sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan muammolarning yechimlarini topa olish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralgan.*

***Kalit so'zlar.** ta'limni raqamlashtirish, raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, o'zbek tili ta'limi, zamonaviy texnologiyalar.*

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Расулжон Атамуратов

Доцент кафедры Компьютерной лингвистики и цифровых технологии,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Севара Шакирова

Магистрант 1-го курса по специальности узбекский язык и литература,
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

***Аннотация.** В статье говорится о том, что применение цифровых технологий в образовательном процессе ускоряется как никогда, и что цифровая грамотность будущих учителей узбекского языка является одним из необходимых навыков 21 века в контексте современного образования. Также в статье более подробно рассматривается важность подготовки будущих специалистов для современных высших учебных заведений для развития навыков, необходимых для поиска решений проблем, которые могут возникнуть в образовательном процессе, и творческого*

использования не только современных, но и будущих технологий в своей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: цифровизация образования, цифровая грамотность, цифровая компетентность, узбекское языковое образование, современные технологии.

DEVELOPMENT OF DIGITAL LITERACY OF FUTURE UZBEK LANGUAGE TEACHERS AS A ACTUAL PEDAGOGICAL PROBLEM

Rasuljon Atamuratov

Associate Professor of Computer Linguistics and Digital Technologies
Department, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Sevara Shakirova

1st course Master's degree student in the specialty Uzbek Language and Literature,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract. *The article mentions that the application of digital technologies to the educational process is accelerating more than ever, and that digital literacy of future Uzbek language teachers is one of the necessary skills of the 21st century in the context of modern education. Also, the article further elaborates on the importance of the training future specialists for modern higher education institutions to develop skills needed in finding solutions to problems that may occur in the educational process and to be creative using not only current but also future technologies in their professional activities.*

Key words: *digitalization of education, digital literacy, digital competence, uzbek language education, modern technologies.*

Kirish

Jahonda sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanilmoqda. Jahon tajribasida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga hamkorlikda o'qitish, tizimli yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, pedagog kadrlarning zamonaviy texnologik bilimlarini kengaytirish, axborot texnologiyalari asosida loyihalash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Respublikamizda raqamli savodxonlikni oshirish, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish masalalari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini samarali tashkil etish, oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yangi Renessans pedagogikasi sharoitida muqobil ta'lim shakllarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga qodir o'zbek tili o'qituvchilarni tayyorlash, ularda faol o'qish va o'rganish, kreativ, tanqidiy, hamkorlikda faoliyat hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Islahotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nafaqat yosh avlodga e'tibor qaratish, balki, raqamli savodxonlikni ham hisobga olish zarur. Biroq, ta'lim sohasidagi dolzarb muammo shundaki, ko'plab o'qituvchilar yetarlicha

raqamli savodxonlikka ega emaslar. Bu esa ta'lim tizimining jadal rivojlanishida juda muhimdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish hamda ta'lim o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quv jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda ta'lim mazmunini isloh qilish va uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bog'liq jarayonda o'zbek tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish ham dolzarb masalaga aylanib, o'zbek tili fanini o'qitish konsepsiyasi, Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi, "O'zbek tili" darsliklarining yangi avlodi kommunikativ va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida yaratila boshlandi. Bugungi kunda "ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish", ijodiy matn yaratishni ta'minlovchi ta'lim mazmuni va usullarini takomillashtirish, matn tuzilishiga doir qoidalar, mashq va ish turlari tizimini ishlab chiqishda, bugungi kundagi "O'zbek tili" darsliklari imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish masalalarini maxsus tadqiq etish, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi hamda ijodiy tafakkurini talab darajasida shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Adabiyotlar tahlili

"Raqamli savodxonlik" tushunchasi ancha ilgari paydo bo'lgan. Bu atama insonning raqamli muhitdagi vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini bildiradi. "Raqamli" so'zi axborotning raqamli shaklda elektron qurilmalarda taqdim etilishini ifodalasa, "savodxonlik" raqamli resursni mutolaa qilish va asoslash, raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish hamda grafik tasvirlarni tushuna olish, shuningdek, raqamli muhitdan olingan yangi bilimlarni baholash va qo'llay olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

"Raqamli savodxonlik bu – raqamli jamiyatda o'qish va ishlash talablari hamda muammolariga yechim topish uchun texnologiyani ishonchli, ijodiy va tanqidiy ravishda aniqlash va ishlatish qobiliyati" [1] sifatida tadqiq qilingan.

Paul Gilster o'zining ilmiy ishlarida raqamli savodxonlikni zamonaviy texnologiyalarni ishlatish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, raqamli savodxonlik nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki, ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va maqsadga muvofiq qo'llashni ham o'z ichiga oladi [2].

H.Jenkins va uning hamkasblari tadqiqotida raqamli kompetensiya jamiyatdagi hamkorlik, axborot oqimlarini boshqarish va o'zaro hamkorlikda samarali bo'lish qobiliyatlarini ham o'z ichiga olishini ta'kidlashadi [3].

Eshet-Alkalai raqamli savodxonlikni ko'p darajali tushuncha deb biladi. U raqamli savodxonlikni texnik ko'nikmalar, ma'lumotlarni boshqarish, vizual va kommunikativ savodxonliklar bilan bog'laydi [4].

Shuningdek, turli davlatlar olimlari tomonidan raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari, ta'limni raqamlashtirish konsepsiyalari mazmun va mohiyati hamda pedagogik imkoniyatlari, ta'limni raqamlashtirish

sharoitida fanlararo integratsiyasi jarayonida ta'lim oluvchilarining raqamli kompetensiyasini shakllantirish [5], ta'lim muassasalaridagi talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari [6], o'quv jarayonida aqlli texnologiyalardan foydalanishga tayyorligini oshirish [7], raqamli savodxonlikni rivojlantirish modellari va davlat dasturlari bilan integratsiyasi hamda sun'iy intellekt tizimlarining raqamli savodxonlik va individual ta'limdagi roli [8], raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha tizimli tahlillar [9], ta'lim jarayonida raqamli savodxonlikning ahamiyati [10] va uni rivojlantirish usullari, muammo va oqibatlariga [11] doir tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi pedagogik kuzatishlar hamda tahliliy jadvallarni tuzish usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Turli ta'lim sohasi vakillari tomonidan raqamli savodxonlikni rivojlantirish muammosi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga doir maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga, raqamli ko'nikmalarni takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etdi.

Tadqiqotning maqsadi raqamli kompetensiyalarning tuzilishiga ma'lum yondashuvlarni umumlashtirish va bo'lajak o'qituvchilarning o'quv faoliyati muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'nikmalar ro'yxatini tuzishdir. Yangi avlod o'zbek tili o'qituvchisi tomonidan shakllantirilishi kerak bo'lgan ko'nikmalardan biri bu – raqamli kompetensiya. Ushbu kompetensiyalarga quyidagi bilimlarni kiritish mumkin: innovatsion faoliyat uchun raqamli texnologiyalarning potensialini tushunish; o'quv mashg'ulotlarini loyihalash uchun amaliy dasturlardan foydalanish qobiliyati; raqamli qurilmalarning tuzilishi va o'zaro ta'sirini bilish. Tez orada kompyuter savodxonligining standart to'plami yetarli bo'lmaydi, hech bo'lmaganda asosiy darajada dasturlashni o'zlashtirish foydali bo'ladi.

Raqamli savodxonlikni rivojlantirish hozirda eng muhim tamoyillardan biri bo'lib, uning markazi shaxs hisoblanadi. Raqamlashtirish pedagogikaning bir tarmog'i sifatida o'qituvchi va talabalarni tarbiyalash hamda o'qitish qonuniyatlarini o'rganadi.

O'zbek tili ta'limi uchun raqamli savodxonlik juda muhimdir. Quyida uning ahamiyati keltirilgan:

1. *Raqamli vositalardan samarali foydalanish.* Raqamli savodxonlik o'zbek tili ta'limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, elektron kitoblar, onlayn lug'atlar, grammatik tekshiruvchilar va til o'rgatish dasturlari orqali o'zbek tilini o'rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish va samarali qilish mumkin.

2. *Matnlarni tahlil qilish va yozma savodxonlikni rivojlantirish.* Raqamli savodxonlik ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarga turli xil raqamli platformalarda matnlarni yaratish va tahlil qilish imkonini beradi. Ta'lim oluvchilar nafaqat matn yozish, balki, uni raqamli muharrirlarda tahrir qilish, tuzatish va nashr qilishni o'rganadilar. Bu yozma savodxonlikni yanada yaxshilaydi.

3. *Axborotni tanqidiy tahlil qilish.* Raqamli savodxonlik ta'lim oluvchilarga o'zbek tilida yozilgan turli ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmasini beradi. Raqamli axborot manbalari ko'paygani sababli, ta'lim oluvchilar ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va ishonchli manbalarni tanlashga o'rganadi.

4. *Multimediali ta'lim usullari.* O'zbek tili ta'limi faqat matnga asoslanib qolmay, audio, video va interaktiv materiallardan foydalanish imkoniyati ham paydo bo'lgan. Masalan, audio kitoblar, video darslar va til o'rgatish uchun yaratilgan interaktiv platformalar ta'lim oluvchilarni tilga qiziqtiradi va bilimlarni mustahkamlashda yordam beradi.

5. *Ijtimoiy va madaniy hamkorlik.* Raqamli savodxonlik ta'lim oluvchilarga internet orqali turli madaniyat va til jamoalari bilan bog'lanish imkonini beradi. O'zbek tili ta'limida bu ijtimoiy hamkorlik orqali o'z o'zbek tilida yozish va gapirish ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish imkonini beradi, shu bilan birga tilni jonli va global kontekstda ishlatish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

6. *Ta'lim jarayonini moslashtirish va individualizatsiya qilish.* Raqamli texnologiyalar yordamida har bir ta'lim oluvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos ta'lim usullarini qo'llash mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning tilni o'rganish tezligi, savodxonlik darajasi va o'quv materiali bilan individual ishlashiga moslashtirilgan ta'lim imkonini beradi.

7. *Zamonaviy ish muhitiga tayyorgarlik.* O'zbek tilida raqamli savodxonlikni rivojlantirish ta'lim oluvchilarga kelajakdagi raqamli hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarni raqamli jamiyatga moslashtirish ham muhim masalalardan biridir. O'zbek tili o'qituvchilarining raqamli savodxonligini oshirish ularga nafaqat o'zbek tili darslarini samarali olib borishga yordam beradi, balki ularning raqamli jamiyatga moslashuvchanligini ham oshiradi. Shu orqali ular raqamli texnologiyalarni ishlatib, o'z pedagogik faoliyatini yangilash, talabalarning bilim olish jarayonini individuallashtirish va ta'limda innovatsiyalarni joriy qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilariga raqamli savodxonlikni rivojlantirish orqali bir nechta quyidagi raqamli ko'nikmalarni egallaydi: axborotni boshqarish (raqamli axborot manbalarini topish, tahlil qilish va baholash); raqamli vositalar yordamida o'qitish (elektron kitoblar, onlayn lug'atlar, raqamli ta'lim platformalari va hokazo); multimediali kontentlar yaratish (o'zbek tili bo'yicha o'quv materiallarini yaratish uchun videolar, podkastlar va infografikalar tayyorlash ko'nikmalari); hamda xavfsizlik va maxfiylik (raqamli muhitda axborot xavfsizligini ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish).

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirishning muhimlik zarurati zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgani bilan asoslanadi. Raqamli savodxonlikka ega pedagog ta'lim samaradorligini oshirish usullari, yuqori faollik, darslarda turli raqamli vositalarni qo'llash orqali o'quv kontentining yaxshi o'zlashtirilishi va oson eslab qolinishini ta'minlovchi, interaktiv va qiziqarli tashkil qiluvchi kuchli vosita sohibiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Coldwell-Neilson, J. (2017), Digital literacy – a driver for curriculum transformation Vol. 40, pp. 84-94, HERDA 2017 : Research and development in higher education: curriculum transformation : *Proceedings of the 40th HERDSA Annual International Conference*, Sydney, N.S.W.
2. Gilster, P. (1997). *Digital Literacy*.
<https://www.goodreads.com/work/editions/2346785-digital-literacy>
3. Jenkins, H., Purushotma, R., Weigel, M., Clinton, K., & Robison, A. J. (2009). Confronting the Challenges of Participatory Culture. In *The MIT Press eBooks*. <https://doi.org/10.7551/mitpress/8435.001.0001>
4. Eshet-Alkalai, Y. (2004) "Digital literacy: A conceptual framework for survival skills in the digital era". *Journal of educational Multimedia and Hypermedia*, 13(1), 93-106
5. Пахомова Т.Е. Формирование икт-компетентности студентов педагогического колледжа с учётом междисциплинарной интеграции в условиях цифровизации образования: *диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук: 13.00.01* / Пахомова Татьяна Евгеньевна. - Улан-Удэ, 2020. - 174 с.
6. Шаухалова, Р. А. Педагогическая система формирования цифровой культуры студентов бакалавриата в информационно-образовательной среде университета: *диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук: 13.00.08* / Шаухалова Разия Алаудиновна. - Грозный, 2021. - 179 с.
7. Плотникова Л.А. (2022). Организационно-педагогические условия развития готовности педагогов к работе со смарт-технологиями. *Международный научно-исследовательский журнал*, (4-3 (118)), 105-110.
8. Dalgıç, A., Yaşar, E., & Demir, M. (2024). Chatgpt and Learning Outcomes in Tourism Education: The Role of Digital Literacy and Individualized Learning. *Journal of Hospitality Leisure Sport & Tourism Education*, 34, 100481.
<https://doi.org/10.1016/j.jhlste.2024.100481>
9. Ibda, H., Syamsi, I., & Rukiyati, R. (2023). Digital Literacy Competency of Elementary School Teachers: A Systematic Literature Review. *International Journal of Evaluation and Research in Education (IJERE)*, 12(3), 1609.
<https://doi.org/10.11591/ijere.v12i3.24559>

10. Wei, Y. (2022). Digital Literacy in Education: From Local to Global. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research/Advances in Social Science, Education and Humanities Research*.
<https://doi.org/10.2991/assehr.k.220504.495>
11. Mokhtari, F. (2023). Fostering Digital Literacy in Higher Education: Benefits, Challenges and Implications. *International Journal of Linguistics Literature & Translation*, 6(10), 160–167.
<https://doi.org/10.32996/ijllt.2023.6.10.19>